

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

2. Жмуров Д. В. и др. Цирроз печени //Colloquium-journal. – Голопристанський міськрайонний центр зайнятості, 2020. – №. 11 (63). – С. 57-62.
3. Хусинов А. А., Исламова К. А., Зиядуллаев Ш. Х. Поражение Желудочно-Кишечного Тракта У Больных Коронавирусной Инфекцией //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2023. – Т. 4. – №. 6. – С. 580-585.
4. Shamsiev E. A., Islamova K. A., Ziyadullayev Sh X. ARTERIAL HYPERTENSION IN PATIENTS WITH COVID-19 //Scholastic: Journal of Natural and Medical Education. – 2023. – Т. 2. – №. 11. – С. 13-18.
5. Amrillaevich A. I. et al. EFFECTIVENESS OF LASER PHYSIOTHERAPY METHOD IN TREATMENT OF PRIMARY KNEE JOINT OSTEOARTHRITIS //International Conference on Medicine and Life Sciences. – 2023. – С. 76-82.
6. Hamrayev B. E. et al. SYSTEMIC LUPUS ERYTHEMATOSUS AND RENAL LESIONS: CLINICOPATHOGENETIC ASPECTS //American Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences (2993-2149). – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 482-489.
7. Абдушукурова К. Р. и др. Суставной Синдром При Хронических Воспалительных И Дистрофических Заболеваниях Суставов //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 33. – С. 209-214.
8. Абдушукурова К., Исламова К. ВЗАИМОСВЯЗЬ ПЕРВНО-ЭНДОКРИННЫХ НАРУШЕНИЙ У БОЛЬНЫХ РЕВМАТОИДНЫМ АРТРИТОМ //International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research. – 2023. – Т. 3. – №. 11. – С. 16-20.
9. Akramovna I. K., Rafikovna U. K., Ergashevna E. N. Current Perceptions of Chronic Pancreatitis //International Journal of Alternative and Contemporary Therapy. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 12-16.
10. Akramovna I. K., Alisherovna K. M. CAUSES OF ARRHYTHMIA DURING PREGNANCY //Journal of new century innovations. – 2024. – Т. 45. – №. 3. – С. 34-41.
11. Akramovna I. K., Rustamovna A. K. ULTRATOVUSH TEKHIRUV USULINING ERTA RIVOZHLANGAN OSTEOARTHRITIS KASALLIGIDAGI DIAGNOSTIC AHAMIYATI //International Conference on Medicine and Life Sciences. – 2023. – С. 72-75.

BIR MUXAMMAS TAHLILI

Mardonova Gulchehra Ulug'bekovna

Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Ogahiyning Navoiy g'azaliga taxmis qilib bog'langan muxammasi tahlilga olingan. Mavzu jihatdan ishqiy mavzuda bo'lgan bu muxammasda majoziy ishq orqali haqiqiy ishq-Allohga bo'lgan muhabbat va unga erishish yo'lidagi mashaqqatlar ifodangan.*

Annotation: *This article analyzes Ogahi's mukhamma, which is a metaphor for Navoi's ghazal. This mukhamma, which is thematically romantic, expresses true love - love for Allah - and the hardships on the path to achieving it through figurative love.*

Kalit so'zlar: *taxmis, g'o'livash, furqat, Iso, fano mulki, kamand*

Key words: *takhmis, hypocrite, separation, Jesus, mortal property, bow*

O'zbek adabiyotida g'azal, ruboiy kabi mashhur janrlar qatorida muxammaslarning ham o'rni beqiyosdir. Ogahiy ijodi misolida ham muxammaslarning mumtoz adabiyotdagi keng tarqalgan turi sifatida ko'rishimiz mumkin. Ammo Ogahiyning muxammas janri asoschisi deb tushunish xatolikni keltirib chiqaradi. Aksincha, olim G. Xalliyevaning ta'biricha; „Muhammad Rizo Ogahiyning muxammas yaratish an'anasini boyitishdagi, taraqqiy qildirishdagi san'atkorligi va mahoratini e'tirof etishni taqozo qiladi”.¹¹⁰ Shunday ekan, ijodkor merosida mazmun va ma'no jihatdan bir-biridan betakror muxammaslar ko'zga tashlanadi. Shulardan biri, Navoiy g'azaliga taxmis sifatida bog'langan „Falakkim yaxshilar bazmida...” deb boshlanuvchi muxammasini tahlilga olamiz. Taxmis qilib bog'langan muxammas „voqelikni bor suvrati bilan jonlantirishga qodirligi sababli g'azal baytidagi kechinmalarni aniqlashtirishga, izohlashga, badiiy asoslashga, boyitishga, ilg'ab olish qiyin bo'lgan nuqtalarni oydinlashtirishga xizmat qiladi”.¹¹¹

Falakkim yaxshilar bazmida qadrimni baland etmas,
Dame yo'qkim yomonlar majmayida mustamand etmas
Bu hasratdin ko'zim ashki yo'lin bir lahza band etmas
Mani man istagan o'z suhbatig'a arjumand etmas
Mani istar kishining suhbatin ko'nglim pisand etmas.

Ushbu muxammasning dastlabki misrasidayoq lirik qahramon o'z taqdiridan shikoyat qiladi, bu yerda qo'llangan falak so'zini majoziy ma'noda ilohiy qismat deb tushunish mumkin. „Yaxshilar bazmi” iborasi ham tom ma'noda qo'llangan bo'lib ijodkor yaxshi, fazilatli insonlar orasida qadr topmagani, ya'ni o'z o'rniga ega emasligini aytadi. Lekin keyingi misradan ma'lumki, yomonlar orasida xor bo'lib ham qolmaydi. Shunday bo'lsa-da o'z istagan insonlar orasida bo'lmaganidan shoir chuqur qayg'uda qoladi, o'zi istagan insonlar uni qatoriga qo'shmaydi, lekin uni xohlayotganlarni uning qalbi xohlamaydi, bu orqali lirik qahramon o'z qadrini yuqori darajaga qo'yadi.

Fig'onkim, dahri dun ichra rafiqe topmadim ogah,
Qayon borsam bo'lurlar g'o'livashlar hamdam-u hamrah,
Tilarlar bahra mandin, man tilab topman biridin rah,
Na bahra topg'aman ondinki mandin istagay bahra,
O'zi ham bahramand o'lmas, mani ham bahramand etmas.

Yuqoridagi baytlarda lirik qahramon bu foniy dunyo ichra chin do'st topolmaganligi va qayerga borsa ham doimo g'o'livashlar (ikkiyuzlamachi, riyokor) kimsalarga uchraganidan noliydi. O'sha kimsalar esa doim undan bir manfaat kutishadi, lekin unga to'g'ri yo'l ko'rsatadigan, chin do'st topolmaydi, inson manfaat kutadigan kimsalarni qanday o'ziga yaqin olishi mumkin? Bunday insonlar na birovga foyda keltira oladi, na o'zi foyda oladi. Bu bayt orqali

¹¹⁰ G. Xalliyeva. Ogahiy musammatlari. Monografiya. Toshkent, 2019. 60-bet.

¹¹¹ G. Xalliyeva. Ogahiy musammatlari. Monografiya. Toshkent, 2019. 86-bet

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

ijodkor faqat manfaat uchun do'st boladigan ikkiyuzlamachi insonlarni qattiq tanqidga oladi, chin do'stlik, samimiy insonlar yo'qligidan afsuslanadi.

Ko'zi zahri esa har nechakim moyil mamotimg'a
Labi shahdi edi rog'ib o'lumdin ham najotimg'a
Bu dam vosil emon ul qotili Iso sifotimg'a
Netay hur-u pari bazminki qatlim yo hayotimg'a
Ayon ul zahri chashm aylab ,nihon bu no'shxand etmas.

Ushbu baytda esa lirik qahramon oshiq sifatida gavdalanib mahbubasidan hijron azobida qolgan g'aribg sifatida tasvirlanadi. Mumtoz adabiyotimizdan ma'lumki, ma'shuqa nigohi oshiq uchun tiriklik va visol mnbayi sifatida talqin etilsa-da, Ogahiyning bu misralarida aksincha, ma'shuqa nigohi oshiqni halokatiga sabab bo'luvchi zahar sifatida tasvirlanadi, ya'ni mahbubasining har qarashi qalbiga zahardek botadi va bu nigoh oshiqning motamini kutayotgandek tuyuladi. Lekin shunday bo'lsa-da , oshiqning tirik qolishga najoti bor: seviklisining labi (bo'sa yoxud visoli) unga shifo bag'shlaydi, hatto o'limdan ham asrab qoluvchi sabab sifatida ko'rsatiladi. Keyingi misrada ma'shuqaning bu ikki xususiyati aniqroq ochib beriladi. Diniy kitolardan bilamizki, xristian dini paygambari Iso alayhissalomga Alloh tomonidan mo'jizaviy kuch-hayot etish qobiliyati berilgan. Shu sabab adabiyotimizda Iso payg'ambar tiriklik obrazi sifatida gavdalanadi. „Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati“da: Masih, Masiho arabcha, Iso payg'ambarning laqabi. Diniy afsonalarda Isoning o'z nafasi bilan o'liklarni tiriltirish, jon bag'shlash qobiliyatiga ega bo'lgan, - deyilgan. „Adabiyot-she'riyatda sevgilini va uning labini jonbag'shlik yuzasidan masih (Iso)ga o'xshatadi“¹¹². Aynan mahbubaning labi tufayli omon qolgan oshiq bu sifatni Iso sifatiga taqqoslaydi. Bundan tashqari ma'shuqaning ham halok qiluvchi, ham jon ato etuvchi sifatlari o'zaro zidlanib tasvirlanadi. Shunday ekan, oshiqning halokati yo omon qolishi aynan hur-u parilar bazmiga bog'liq bo'lsa , qayerga ham qochib keta olardi? Mahbubaning nigohi ham, yoqimli so'zi ham aniq ko'rinib turibdi. Oshiq esa mahbubaga butun borlig'i bilan taslim bo'lgan. Bu baytlar orqali ijodkor inson uchun yoqimli tuyilgan narsalar ham ba'zan halokatga sabab bo'lishi mumkin, hatto muhabbat ham qurbonlik talab qiladi degan tushunchalarni ilgari suradi.

Chiqo olmay ko'ngul hayrondur usru shomi furqatdin
To'kar ashkini ko'z ham intizori subhi vislatdin
Iloji bo'lmasa ul mohvash xurshidi tal'atidin,
Kerakmas oy bilan kun shaklikim husn-u malohatdin,
Ichim ul chok-chok etmas ,tanim bu band-band etmas.

Yuqoridagi misralarda oshiqning hijronda qolishi yanada achinarli holatga kelib qolganligi tasvirlanadi. Ayriqlik shu darajada kuchliki, hatto unda chiqib ketadigan yo'l topolmay ko'ngil azoblanmoqda. Ko'z ham visol ilinjida yorni kutib yosh to'kmoqda. Bu yerda muhabbat visoli

¹¹² Usmon Qobilov. Alisher Navoiy „Badoyi ul-bidoya“ devonida nubuvvat masalasi va Masih obrazi talqini. Alisher Navoiy Xalqaro jurnali .3-jild .2-son. Toshkent. 2023.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

insondan katta sabr talab etishi ifodalanmoqda. Keyingi misrada mahbuba yuzi quyoshga o'xshatiladi. Agar uning visoli bo'lmasa, oy bilan quyoshning ham oshiqqa keragi yoq. Tashqi olamni tark etsa-da, lirik qahramon o'z holatini: ichki olamining og'riqli holatini va tanasidagi alamni yashirmaydi. Bu yerda ruh va jism orasidagi achinarli holatlar aniq ochib berilgan.

Bugun chobuklar ichra yo'q edi ul shahsuvorimkim
Birini qilmadi manzur chashmi ashkborimkim,
G'uboroso ne tong gar qolmasa sabr-u qarorimkim
Kerak o'z chobuk-u qotilvash-u majnun shiorimkim
Buzuq ko'nglumdin o'zga yerda javloni samand etmas.

Keyingi bayt majoziy misra bilan boshlanib, yorni shohsuvor, ya'ni ot toptiruvchi chavandoz sifatida tasvirlanyapti, lekin aslida misradagi tub ma'no ma'shuqa ko'ngil otining chavandozi sifatida nazarda tutilgan. Ko'ngil qancha xohlamasin yorni topolmay hijronda qolgan. Qancha go'zallar bo'lsa ham, oshiq ko'zi bosjqa birini xohlamaydi. Oshiqning sabri shu darajada to'lib toshdiki, undan ajralishi muqarrar holatga kelib qoldi. Uning sevgi iztirobi faqat vayron bo'lgan qalbidagina yashaydi, boshqa joyda erkinlik topolmaydi

Ko'ngulni aylab, ey solik, taalluq chirkidin tohir,
Fano mulkiga azm et, bexavotir aylabon xotir,
Nechakim bersa koming aylabon mehr-u vafo zohir,
Ko'ngul o'z charx zolidin firibin yemakim, oxir
Ajal sarrishtasidin o'zga bo'ynungg'a kamand etmas.

Ushbu misralarda orifona mavzu yetakchilik qilib, solikka murojaat qiladi. Ma'lumki solik inson-din yo'lidagi tariqat yetakchisi sifatida tasvirlanadi. Ko'ngil esa adabiyotimizda ilohiy haqiqatga olib boruvchi maskan sifatida ifodalaandi. Misradagi „taalluq chirk“ deb dunyoga ortiqcha berilish bog'lanish sifatida aytilmoqda. Aynan solikka ko'ngilni dunyoga haddan ziyod bog'lanish kabi iflosliklardan tozalash buyurilmoqda. Xotirjam bo'lish uchun esa faqatgina fano mulki orqali erishiladi, ya'ni nafsga qarshi chiqib, uni yo'qotish zarur. Keyingi misralarda insoniylikning ezgu sifatleri mehr va vafo qilish ilgari suriladi, falakning ortiqcha aldovlariga uchmaslik lozimligi, insonning bo'yniga faqat muqarrar ajalgina arqon bog'lab o'ziga asir qilishi haqida fikrlar ilgari suriladi

Savodi zulfini ko'rgach yumor Ogahiy tun deb ko'z,
Yuziga nozir o'lg'och ham tutar qo'l birla kun deb ko'z,
Ko'ngul hayratda qolma ko'rmas oni ne uchun deb ko'z
Ul oy o'tlug' yuzin ochsa, Navoiy, tegmasun deb ko'z
Muhabbat tuxmidin o'zga ul o't uzra sipand etmas.

Oxirgi baytda yorning go'zalligi shu darajada ulug'lanadiki, ma'shuqaning qora zulfini ko'rib, shoir uni tunga o'xshatib uni ko'rmasdan ko'zini yumadi. Shu darajada sochining qoraligidan oshiq bu go'zallikni ko'rolmay tun deb hisoblaydi. Keyingi misrada yor yuzi shunchalik kundek yorug'ki, quyoshni ko'rgandek ko'zlar qamashib qo'l bilan berkitilishi

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

mazojiy ifodalanadi. Shuning uchun bu go’zallikdan ko’ngil hayratlanmasa ham bo’ladi. Lirik qahramon hatto yoriga o’z ko’zi tegmasligi uchun samimiy ishq va pokiza muhabbati bilangina uni saqlash va anglash mumkin deb hisoblaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ushbu muxammas ishqiy mavzuda yozilgan bo’lsa-da, uning tag zamirida tasavvufiy ma’no, ya’ni ilohiy muhabbatni anglash, unga yetishish yo’lida qancha mashaqqat, azob yo’lini bosib o’tish lozimligi, va hatto bu muhabbatga erishgach ham uni qalbda saqlash, anglash darkorligi uqtiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G.Xalliyeva .Ogahiy musammatlari. Monografiya. Toshkent, 2019.
2. .O.Karimov. Mumtoz she’riyat janrlari. Uslubiy qo’llanma. Namangan. 2015.
3. Majidiy R. Ogahiy lirikasi. T., Fan, 1963.
4. Usmon Qobilov. Alisher Navoiy „Badoyi ul-bidoya” devonida nubuvvat masalasi va Masih obrazi talqini. Alisher Navoiy Xalqaro jurnali .3-jild .2-son. Toshkent. 2023.
5. www.google.uz
6. www.ziyounet.uz

TILSHUNOSLIKDA NUTQIY SINTAKTIK QOLIPLARDAN O‘RINLI FOYDALANISH

Mohinur Mo‘min qizi Raxmatilloeva
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada tilshunoslikda modellashtirish metodi, ona tilimizdagi qoliplashtirish haqidagi fikrlar, ayrim so‘z birikmalarining sintaktik qoliplari hamda ulardan nutqiy hosilalar yaratish, ergashgan qo‘shma gaplarning nutqiy sintaktik qoliplari, ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarning sintaktik qoliplaridan foydalanishning ahamiyati masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Tayanch so‘zlar: lingvistik modellashtirish, avtomatik tarjima, lisoniy sintaktik qolip, nutqiy hosila, ergashgan gap qolipi, ko‘chirma gapli qo‘shma gaplar qolipi.

Jamiyatimiz taraqqiyoti tufayli tilimizda ham turli yo‘nalishlar hamda turli xil metodlar vujudga keldi. Jumladan, modellashtirish metodi nafaqat tilimizning turli bo‘limlarini ixchamlashtirib o‘zlashtirish uchun, balki kompyuter lingvistikasi sohasida tarjima ishi uchun, shuningdek, komparativistikada tillarni o‘zaro taqqoslash uchun ham juda muhim usullardan biri sanaladi. Grammatikani formallashtirish tendensiyasi XX asrning o‘rtalarida kuchaydi. Bu